



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



## POSTMODERN NASRDA JANRIY MODIFIKATSIYALAR

**Sultonova Nilufar Narzullayevna**

*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*

*Qarshi davlat universiteti*

[sultonovanilufar14@gmail.com](mailto:sultonovanilufar14@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada postmodern adabiyotda janriy modifikatsiya masalasi tahlil qilinadi. Postmodern nasrda an‘anaviy janrlarning o‘zaro sintezi, badiiy shakl va mazmun yangilanishi hamda janriy chegaralarning nisbiylashuvi ilmiy-estetik jihatdan yoritiladi. Shuningdek, postmodern tafakkurning adabiy janrlarga ta‘siri, intertekstual yondashuv va uslubiy eksperimentlarning janr tabiatidagi o‘rni ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *postmodernizm, janr, janriy modifikatsiya, postmodern nasr, intertekstuallik, poetika, badiiy tafakkur, janr sintezi, metafiksiya, estetik tamoyil.*

XX asrning ikkinchi yarmida jahon adabiyotida yuzaga kelgan postmodernizm oqimi badiiy tafakkur taraqqiyotida yangi estetik qarashlarni shakllantirdi. Ushbu yo‘nalish an‘anaviy adabiy mezonlarni qayta ko‘rib chiqib, janr, syujet, obraz va kompozitsiya masalalariga yangicha yondashuvni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, postmodern nasrda janriy chegaralarning buzilishi, turli janr elementlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi hamda badiiy shaklning erkinlashuvi muhim poetik xususiyat sifatida namoyon bo‘ldi. Postmodern adabiyotda janr tushunchasi qat‘iy qolip sifatida emas, balki dinamik va o‘zgaruvchan hodisa sifatida talqin qilinadi. Shu sababli postmodern asarlarda roman, esse, xotira, detektiv, mif va fantastik unsurlar bir asar tarkibida uyg‘unlashib ketadi. Natijada janriy modifikatsiya hodisasi yuzaga kelib, adabiy matnning estetik imkoniyatlari kengayadi. Postmodern nasrdagi bunday janriy o‘zgarishlar yozuvchining individual uslubi, intertekstual tafakkuri hamda voqelikni subyektiv idrok etish tamoyillari bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur maqolada postmodern nasrda kuzatiladigan janriy modifikatsiyalar, ularning poetik xususiyatlari va badiiy-estetik mohiyati ilmiy tahlil asosida yoritiladi.

Postmodernizm tushunchasi haqida yevropada XX asarning o‘rtalaridan, rus adabiyotshunosligida 60-70-yillar oralig‘ida so‘z yuritila boshlagan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiyotshunosligida bu masala talqinlari joriy asrning 10-yillaridan boshlandi. Bunday talqinlarning muayyan ijodkorlar asarlari (A.Yo‘ldosh – U.Normatov; I.Sulton – A.Rasulov) yoki darsliklar (Q.Yo‘ldosh, M.Yo‘ldosh), terminologik lug‘atlar (D.Quronov va boshqalar) munosabati bilan yozilganiga guvoh bo‘lamiz. “Biroq o‘zbek adabiyotshunosligida hali bu masalani tadqiq etish deyarli boshlanmadi, uni atroflicha o‘rganish hamon ertaning vazifasi bo‘lib qolmoqda”<sup>25</sup>.

<sup>25</sup>Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 230.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



D.Quronov va boshqalar tomonidan yozilgan “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da “Postmodernizm”ga bag‘ishlab yozilgan maqolachaga butun boshli besh sahifaning ajratilishi, bizning o‘ylashimizcha, o‘zbek adabiyotshunosligida bu adabiy hodisa haqidagi ma‘lumotlarning deyarli yo‘qligi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. “Postmodernizm (fr. postmodernisme – modernizmdan keyingi) – o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab adabiyot va san’atda, umuman, ijtimoiy-gumanitar sohalarida kuzatila boshlagan oqim, ijodiy metod. Fransuz poststrukturalizmining dekonstruksiya (J.Derrida), postfreidizmning “shizoanaliz” va “ongsizlik tili” (J.Lakan, J.Delyoz, F.Gattari) ta’limotlari hamda semiotikadagi kinoyaviylik konsepsiyasi (U.Eko) Postmodernizmning falsafiy asosini tashkil qiladi. Postmodernizmning yuzaga kelish vaqti, o‘ziga xosligi masalasida turlicha fikrlar mavjud. Ayrim mutaxassilar Postmodernizm 40-yillarda J.Joysning “Finnegan ma‘rakasi” (1939) asari bilan boshlangan desa, boshqalari o‘tgan asrning o‘rtalarini, yana bir xillari 70 – 80-yillarini ko‘rsatadilar va h.k.”<sup>26</sup>.

Rus adabiyotshunosi I.Ilin, nemis tadqiqotchisi M.Suenvik, o‘zbek adabiyotshunoslari A.Rasulov, U.Normatov, Q.Yo‘ldoshevlarning qayd etishlaricha, postmodernizm badiiy hodisa sifatida XX asrning ikkinchi yarimlaridan adabiy jarayonda o‘z aksini topdi. Postmodernizmi 20-yillardagi madaniy hodisalar chatishuvi deb qarash, 40-yillarda modernizm adabiyotining rivojlangan shakli deb talqin etish ham aslan postmodernizmga tomon olib kelgan turli yo‘llarni bildirishi bilan ahamiyatga molik. Ammo postmodernizm estetikasining adabiyotshunoslikda nazariy planda o‘rganilishi shunday xulosaga olib keldiki, postmodernizm modernizmning mantiqiy davomi emas. D.Quronov so‘zlari bilan aytganimizda “postmodernizm modernizmdan jiddiy farqlanuvchi mustaqil hodisadir”. Postmodernizm tadqiqotchilari bu hodisaning asosida dunyo xalqlari fikr tarzida jiddiy o‘zgarish yasagan, dunyodagi jamiki axborotlarni yagona nuqtada jamlagan kommunikatsiya vositalari, internet, televideniyaning keskin rivojlanishi turadi degan fikrni ilgari su radilar. Axborotlar xuruji, vaqtning tig‘izlashuvi, badiiy asarning moddiy farovonlik omili bo‘lgan kapital deb qaralishi, badiiy didning xiralashuvi, san’atning gibridlashuviga olib keldi. Kapitalizm bosqichida shakllangan shaxs konsepsiyasi postmodernizm davriga kelib ommaviylashdi. Natijada san’at va adabiyot ham olam, uning modeli, undagi yolg‘iz inson haqidagi ijodkorning ijodiy niyati orqali paydo bo‘lgan subyektiv tasavvurlarini emas, an’analar jarayonida badiiy modellashtirilgan estetik birliklar (badiylashtirilgan axborotlar)ni jamlash, interkontekstuallashtirish, ommallashtirish vazifasini bajarishga o‘tdi. “Muallif o‘limi” konsepsiyasini maydonga keltirdi.

Aynan professor D.Quronovning bevosita rahbarligida tuzilgan “Adabiyotshunoslik lug‘ati” kitobida jahon adabiyotidagi bu ikki falsafiy-badiiy oqimni farqlantirib turuvchi to‘qqizta xususiyat qiyosiy tarzda ko‘rsatib o‘tilgan. I.Sultonning “Ozod” romanini xuddi shu – postmodernizm oqimiga mansub degan fikrda bo‘lganimiz, ushbu faslda romanni

---

<sup>26</sup>Isajon Sulton. Hazrati Xizr izidan. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -Toshkent. 2018. –B. 227.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



postmodernistik syujet muammosi ostida o‘rganishimiz bu farqlarni to‘lig‘icha keltirishni maqadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Modernizm – yangi adabiyot va san‘atni yaratish da‘vosi, an‘analarni inkor qilish. Postmodernizm – an‘analarni o‘ziga singdirish va ularga kinoyaviy munosabatda bo‘lish.

Modernizm – olamni xaos deb bilish va undan qochish. Postmodernizm – xaos deb bilingan olamni qabul qilish, uni o‘yin tariqasida o‘zlashtirish. Modernizm – go‘zallikni reallikdan tashqarida izlash. Postmodernizm – go‘zallikni reallikdan izlash. Modernizm – madaniyatda yevropatsentrizm, Yevropa xalqlari madaniyatini umumbashariy madaniyat asosi deb bilish. Postmodernizm – Sharq, Lotin Amerikasi, Afrika, Okeaniya xalqlari madaniyatiga kuchli qiziqish, barcha madaniyatlarni qimmatini jihatidan teng bilish.

Modernizm – ijodni individual hodisa deb bilish, ijodkor faolligini va uning mazmunini shakllantiruvchi markaz ekanini e‘tirof etish. Postmodernizm – ijodda individ rolini inkor qilish, “muallif o‘limi” konsepsiyasi<sup>27</sup>.

Sanab o‘tilgan postmodernizm adabiyotiga xos jihatlarning deyarli ko‘pchiligi bu metod nazariyasiga oid asarlarda o‘z aksini topgan. Ammo ilmiy tasnifning yettinchi va sakkizinchi bandlari bir oz mulohazaga undaydi. Modernizmda janrlar orasidagi aniq chegaralar mavjud bo‘lgani haqidagi fikr biroz bahsli. Chunki bunday chegaralar modernizm davrigacha romantizm, sentimentalizm, simvolizm adabiy oqimlari misolida buzila boshlagan. Modernizm adabiyot, falsafa, fan, badiiy uslublarni rasmiy ravishda gibridlashtira boshlagan oqimligi bilan shu jarayonlarni tezlashtirdi. Postmodernizm esa faqat “janrlar mutatsiyasi” hodisasigina xos bo‘lmay, bu estetik jarayon janrni tashkil etadigan badiiy komponentlarga ham tegishli. Syujet, kompozitsiya, obraz, ayniqsa, badiiy uslubdagi modifikatsion jarayonlar borib-borib to‘lig‘icha janr modifikatsiyasining maydonga kelishini ta‘minladi. Modernizm adabiyotida tugal asar konsepsiyasining mavjudligi ham to‘la qabul qilib bo‘lmaydigan xulosa. Birinchidan, “subyektiv o‘yin”dan (R.Bart) iborat bo‘lgan modernistik san‘at hech qachon bir ijodkorning sun‘iy badiiy qurilmasi (yaratgan asari) tugallikka olib kelmasligini bildiradi. O‘z subyektiga o‘ralib olgan ijodkor tugallikka erishgan taqdirda ham bu boshqa ijodkorlar, ayniqsa, o‘quvchi uchun nisbiy tugallik ham bo‘la olmaydi. Ikkinchidan, modern adabiyotning yirik vakillari M.Prust, J.Joys, J.P.Sartr, F.Kafka, A.Kamyu kabi vakillari ijodida tugallanmagan asarlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Shuning o‘zi tugal badiiy asar konsepsiyasini shubha ostiga qo‘yadi.

Rus adabiyotshunosi Ilya Ilinning “Postmodernizm ilk ibtidosidan yuz yillik intihosigacha: ilmiy mif evolyutsiyasi” nomli tadqiqotida: “Poststrukturalizm va postmodernizm amalda sinonimik tushunchalar sifatida xarakterlanadi. Postmodernizmni badiiy hodisa sifatida, uning maxsus san‘atshunoslik metodologiyasi bo‘lgan, poststrukturalizm aks etadigan asosiy tanqidiy maktablari va yo‘nalishlari nazariy

---

<sup>27</sup>Isajon Sulton. Hazrati Xizr izidan. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -Toshkent. 2018.

– B. 228-229.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



refleksiyadan ajratish lozim”, degan fikr ilgari suriladi. Olim J.Derrida, M.Fuko, R.Bart, Y.Krestevoy, J.Delezlarning tadqiqotlarida postmodernizm nazariyasi o‘z aksini topganini aytadi. Ayni paytda I.Ilinning o‘zi ham postmodernizm hodisasining xorij adabiyotshunosligi va falsafasida o‘rganilishi, uning nazariyasi, vakillari ijodi, yondosh badiiy-falsafiy hodisalar bilan munosabati haqida o‘nga yaqin jiddiy tadqiqotlar muallifidir. O‘zbek adabiyotshunosi D.Quronov ham bu fikrni tasdiqlaydi: “Postmodernizmning asoschilari, ayni chog‘da, postmodernizm klassiklari ham hisoblanadi. Xuddi modernizm kabi, postmodernizm ham hozirda faoliyatda bo‘lgan, demak, o‘zgarib, shakllanib, takomillashib borayotgan g‘oyat serqirra hodisadir”<sup>28</sup>.

Q.Yo‘ldoshev postmodernizm hodisasining o‘rganilish tarixi haqida gapirib, R.Ranvits, F.de Onis, A.Toynbi, X.Xoks, Ch.Jenks, Liotar singari jahon faylasuflari va adabiyotshunoslari asarlariga to‘xtaladi. Postmodernizmning asosiy spetsifik belgilari sifatida “dekonstruksiya”, “ramziylik”, “simulyakr”, “kich”, “kinoya”, “artefakt”, “interaktivlik”, “universalizm” tushunchalarini keltiradi va uning postmodernistik adabiyotda namoyon bo‘lish xossalari birma-bir ko‘rsatadi. Xulosa o‘laroq: “Postmodernizmdagi eng muhim jihat shundaki, u san‘at asarlarini alohida iste‘dodlar tomonidangi na yaratiladigan betakror fenomen emas, balki epliroq har qanday odam texnik imkoniyatlardan foydalangan holda qilishi mumkin bo‘lgan shunchaki oddiy bir yumush deb biladi. Postmodern yondashuviga ko‘ra har qanday bitik yaratilishining o‘zi bilanoq yashash, talqin va tahlil qilinishga haqli, tanqid yoki inkordan ixotalangan tugal estetik hodisa sanalishi mumkin”. Albatta, bu xulosani mutloq xulosa sifatida qabul qilish o‘zini to‘la oqlamaydi. Postmodernizm imkoniyatlaridan foydalanib ham L.X.Borxes kabi yuksak san‘at namunalarini namoyon etish mumkin. Bu qolaversa, badiiy asarni qanday shaxs yaratayotgani, uning ijodiy maqsadi bilan chambarchas bog‘liq. Iste‘dod uskunasi ostidan chiqqan postmodernistik san‘at namunasi ham o‘shanda katta adabiyot namunasi ga daxldor bo‘la oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isajon Sulton. Hazrati Xizr izidan. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -Toshkent. 2018. –B.260.
2. Rasulov A. Akslar falsafasi. // Isajon Sulton nasri badiiyati. Toshkent. “Turon zamin ziyo” nashriyoti, 2017 yil, 33-bet.
3. D.Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent. “Akademnashr” nashriyoti. 2010.-B. 230..
4. Kristofer Fort. Isajon Sulton va postmodernizm./Isajon Sulton nasri badiiyati. Toshkent. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. 2017.-B. 350.

---

<sup>28</sup>Isajon Sulton. Hazrati Xizr izidan. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -Toshkent. 2018. –B.232.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



5. Z.Pardayeva. O'zbek romani poetikasi (Hozirgi o'zbek romanlarining tahlili misolida). Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2003 yil. 9-bet.

6. To'xta Boboyev. "Adabiyotshunoslik asoslari". Toshkent. "O'qituvchi". 2002 yil 217-bet

